UO‘K: 616.937

TURKISTON ASSRDA BEZGAK KASALLIGIGA QARSHI KURASH TARIXIDAN

Patxiddinov Ruxiddin Xusniddin o‘g‘li, *Associate professor, candidate of historical sciences,*
E-mail: ruxiddinpatxiddinov@gmail.com
Namangan State Technical University

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada bezgak kasalligining Turkiston o‘lkasida tarqalishi, aholining iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ta’siri o‘rganilgan. Xususan, Turkiston ASSRda ocharchilik va yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi, aholi nufusining kamayib ketishiga olib kelganligi asoslangan. Maqolani yozishda O’zbekiston milliy arxivi materiallari va davriy matbuotda chop etilgan maqolalar tahlili, xolislik va tarixiylik prinsiplari asosida yondashilgan. Sovet hokimiyati bezgak kasalligiga qarshi kurashga qishloq xo’jaligi. Xususan, paxtachilikni tiklash zarurati yuzasidan majbur bo‘lgan. Ammo ko‘rilgan choralar shifokorlar, dori-darmon va moddiy-texnik baza yeyishmasligi tufayli yetarli bo‘lmadi.*

Abstract: *This scholarly article examines the spread of malaria in the Turkestan region and its impact on the economic and social life of the population. In particular, it substantiates that famine and the widespread prevalence of infectious diseases in the Turkestan ASSR led to a decline in population numbers. The article is based on materials from the National Archive of Uzbekistan and an analysis of articles published in the periodical press, approached in accordance with the principles of objectivity and historicism. The Soviet authorities were compelled to combat malaria due to the necessity of restoring agriculture, especially cotton farming. However, the measures taken proved insufficient because of shortages of physicians, medicines, and material and technical resources.*

Аннотация: *В данной научной статье рассматривается распространение малярии в Туркестанском крае и её влияние на экономическую и социальную жизнь населения. В частности, обосновано, что голод и широкое распространение инфекционных заболеваний в Туркестанской АССР привели к сокращению численности населения. При написании статьи использованы материалы Национального архива Узбекистана, а также анализ статей, опубликованных в периодической печати, с опорой на принципы объективности и историзма. Советская власть была вынуждена начать борьбу с малярией в связи с необходимостью восстановления сельского хозяйства, прежде всего хлопководства. Однако предпринятые меры оказались недостаточными из-за нехватки врачей, лекарственных средств и материально-технической базы.*

Kalit so‘zlar: *yuqumli kasalliklar, bezgak, sog‘liqni saqlash, paxtachilik, Turkiston ASSR.*

Keywords: *infectious diseases, malaria, public health, cotton farming, Turkestan ASSR.*

Ключевые слова: *инфекционные заболевания, малярия, здравоохранение, хлопководство, Туркестанская АССР.*

Kirish. Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko’ra, har yili bezgak kasalligidan 300-500 million odam kasallanib, 1,25-1,27 million odam halok bo’ladi. O’zbekiston 2006 yilda JST tomonidan “bezgaksiz hudud” deb tan olingan bo’lsada, kasallikning tashqaridan kirib kelish xavfi yo’qolmagan. XX asr birinchi choragida Turkiston o‘lkasida eng ko’p tarqalgan kasallik bezgak bo’lib, aholiga ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan ko’plab muammolar tug’dirgan. Turkiston o’lkasida bezgakning endemik o’choqlari mavjud bo’lib, kasallik aholi o’rtasida doimiy ravishda yilning barcha fasllarida kuzatilgan. Yilning avgust va sentyabr oylarida esa, kasallik tarqalishi o’zining avj nuqtasiga yetgan.

Usullar. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Natijalar. Bezgak kasalligi Turkiston o‘lkasi uchun endemik kasallik hisoblanib, aholiga katta ijtimoiy va iqtisodiy zarar keltirgan. Xususan, 1923-yil 23-26-yanvarda bo‘lib o‘tgan Butunrossiya bezgak syezdida mavjud vaziyat qayd etilib, quyidagicha xulosaga kelinadi: “Hozirgi qiyin sharoitda bezgak mamlakatga ulkan zarar keltirmoqda, gigiyenik jihatdan u aholining biologik zaiflashuviga olib kelmoqda, iqtisodiy munosabatlarda esa, aholining kattagina qismini ishlab chiqarishdan ayirmoqda, ayniqsa, Kavkaz va Turkistonning bir qator hududlarida odamlarning qirilishiga va qishloq xo‘jaligining yakson bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababdan bezgak umumxalq ofati sifatida e’tirof etilishi, unga qarshi kurash esa davlat ahamiyatida bo‘lishi kerak” [1].

Turkiston o‘lkasida bezgakdan kasallanish darajasi doimo yuqori bo‘lgan bo‘lsa-da, 1920-yilning yozidan boshlab kasallik yanada katta ko‘lamda tarqaldi. Bezgakning Turkistonda tarqalishi uchun ideal sharoit yaratilishiga bir necha omillar sabab bo‘lgan: yoz oylaridagi juda yuqori harorat chivinlarning ko‘payishiga imkon bergan, turg‘un suvli joylardagi (sust oqadigan sug‘orish kanallari, botqoqlar va sholi ekinlari) o‘simliklar esa ko‘p miqdorda bezgak plazmodiyalarining paydo bo‘lishiga sharoit yaratgan. Aholining yashash joylari chivinlarning ko‘payish joylariga juda yaqin bo‘lgani uchun ularga kasallik yuqishi xavfi oshgan, shuningdek, mahalliy yashash sharoitlari va “sanitariya madaniyatining pastligi” bezgak infeksiyasining tarqalishidagi so‘nggi halqani mustahkamlagan. 1920–1924-yillarda tabiiy va inson omillari birgalikda bezgakning keng tarqalishiga olib keldi: xususan, tog‘lardan keladigan suv oqimining ko‘pligi sababli yer osti suvlarining yuqori bo‘lishi, o‘simliklarning o‘sishi va boshqa omillar bunga turtki bo‘lgan.

1922-yil 23-28-oktyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston o‘lkasi shifokorlarining 1-ilmiy syezdida tropik kasalliklar to‘g‘risida hisobotlar tinglanib, tropik kasalliklar orasida bezgak ham mahalliy, ham rus aholisi orasida eng ko‘p tarqalgani to‘g‘risida xulosaga kelindi. Bezgak ocharchilik va toshmali terlama singari aholining nochorligining asosiy sabablardan biri bo‘ldi. 1921-yilda Turkiston o‘lkasida kuchli issiq tufayli tog‘larda qorlar erib, daryolarda suv ko‘paydi. Shuningdek, urush va ocharchilik tufayli sug‘orish tizimlari ta’mirlanmay qoldi. Natijada bezgak chivinlari ko‘payib, kuchli bezgak epidemiyasi yuz berishiga sabab bo‘ldi. 1921-yilda butun Turkiston o‘lkasida ambulatoriyalarga 201 798 nafar, statsionarlarga 16 603 nafar bemorlar bezgak bilan og‘rib murojaat qilishdi. Bu raqamlar faqatgina ro‘yxatga olingan bemorlargina bo‘lib, aslida bezgak bilan Turkiston aholisining 30 foizi kasallandi. Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi huzuridagi bezgak komissiyasi tomonidan qator yig‘ilishlar o‘tkazilib, qarorlar qabul qilingan bo‘lsa-da, amalda barcha rejalar mablag‘ yo‘qligi tufayli amalga oshmadi. Hattoki mavjud bezgak stansiyalari ko‘rinishidagi kurash uslubi ham amalda muzlab qoldi [2]. 1921-yil yoz oylarida butun Fag‘ona vodiysi bo‘ylab, ayniqsa Qo‘qon uyezdida va Qo‘qon shahrining o‘zida tropik bezgakning katta to‘lqini yuz bergan. Mahalliy aholi orasida o‘lim holatlari ko‘paygan. Ammo bezgak tarqalishining aniq raqamlarini va o‘lim sonini aniqlash imkonsiz. Qo‘qon shahrida tropik bezgakdan kasallanmagan birorta oila qolmagan. Oilaning barcha a’zolari kasallangan holatlar tez-tez uchrab turgan. Farg‘ona viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi Turkiston SSXKdan zudlik bilan 25 kg xinin va 50 dona shpris yuborishni so‘raydi [3]. 1921-yil avgust oyining o‘zida Qo‘qon uyezdida – 1098 ta, Andijon uyezdida – 1082 ta, Marg‘ilon uyezdida – 998 ta, O‘sh uyezdida – 420 ta, Namangan uyezdida 317 ta bezgakdan kasallanish holatlari qayd etildi. Ammo bu raqamlar faqatgina kasalxona va ambulatoriyalar joylashgan hududlardagi holatni ro‘yxatga olgan. Andijon uyezdida shunday hududlar mavjud ediki, deyarli xar bir aholi bezgakdan kasallangan va juda ko‘p o‘lim holatlari yuz bergan [4]. 1921 yili Mirzacho‘l uyezdida aholining 100 foizida bezgak bilan kasallanish holati kuzatiladi. Eng yuqori o‘lim ko‘rsatkichi ham bezgak kasalligi hissasiga to‘g‘ri keldi. Kasallik asosan mavsumiy paxta dalasi ishchilari orasida keng tarqaldi. Turkistonda paxtachilik va boshqa ekinlar

tiklanishining jadal sur'ati bezgakning avj olish xavfini kuchaytirdi. Mirzacho‘l tumani tuproqning yuqori unumdorligi bilan ajralib turadi, unda eng qimmatli ekinlar - paxta, sholi ekildi. Sovet davlatining Mirzacho‘lda paxtachilikni rivojlantirish tadbirlari tufayli sug‘orish inshootlari kengaytirib borildi. Bu esa kanal va ariqlarning bezgak kasalligini tarqatuvchi hasharotlar to‘planadigan asosiy o‘choqqa aylanishiga xizmat qildi [5]. Bezgak epidemiyasi 1922-yilda ham keng ko‘lamda davom etdi. 1922-yilda Farg‘ona viloyatidagi statsionarlarda 2919 kishi, ambulatoriyalarda 38982 kishi bezgakdan davolandi. Ammo Farg‘ona viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bezgakdan vafot etganlar to‘g‘risida aniq statistik ma'lumotlarga ega emasdi. Viloyatda bezgak kasalligining tarqalish darajasini tasavvur qilish uchun Turkiston 2-diviziyasining tibbiy bo‘limi ma'lumotlariga murojaat qilish mumkin. Mazkur 2-diviziya askarlari orasida barcha kasallarning 1922-yil yanvar oyida 13 foizini, avgust va sentyabr oylarida 72 foizini bezgakka chalinganlar tashkil etgan. Mahalliy aholi orasida, ayniqsa qishloqlarda bu ko‘rsatkich yanada yuqori edi. Xususan, Namangan uyezdining Pop volosti va Ashabin hududida bezgakka chalinganlar barcha bemorlarning 90-95 foizini tashkil etgan. Mahalliy aholining kasallikka qarshi immuniteti ocharchilik tufayli pasaygan, davolanish uchun xinin va tibbiy muassasalar yetarli emas edi [5]. Qo‘qondagi bakteriologiya laboratoriyasi ma'lumotlariga ko‘ra, 1922-yilda tarqalgan bezgak epidemiyasining 75 foizini tropik bezgak, 25 foizini 3 kunlik bezgak tashkil etgan, 4 kunlik bezgak esa deyarli kuzatilmagan [6]. Bezgakka qarshi kurashish uchun Turkiston o‘lkasi bo‘yicha 12 ta "Bezgak otryadlari" faoliyat olib borgan bo‘lib, ulardan faqat bittasi Farg‘ona viloyati Andijon uyezdida ishlagan [7].

Birinchi jahon urushi natijasida Rossiya imperiyasiga xorijdan dori-darmon keltirish kamayib ketgan. Natijada ko‘plab dori vositalari taqchilligi boshlangan. Xususan, Birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrda Turkiston o‘lkasiga yiliga 25000 kg xinin zarur bo‘lgan. 1921-yilga kelib, xininga bo‘lgan talab avvalgi yillardan ortganiga qaramay, Dorixonalar boshqarmasi atigi 600 kg xinin tarqatishi mumkin edi xolos. 1922-yil uchun esa, bor-yo‘g‘i 70 kg zaxira qolgan. Shuningdek boshqa dorilarda ham o‘tkir yetishmovchilik bo‘lgan. Ba'zi muhim dorilar 1-3 foiz miqdorda ajratilgan bo‘lsa, ayrimlari umuman bo‘lmagan. 1921-yil 2-yarmi uchun ajratilgan dorilar faqat bitta shaharning bir oylik ta'minotiga yetarli bo‘lgan. 1922-yilning 1-yarmiga ajratilgan dorilar ham yetarli bo‘lmagan. Masalan, Turkiston o‘lkasi uchun 5000 ta shpris va termometrlar zarur bo‘lgani holda, ulardan atigi 10 dona keltirilgan [8].

Bezgak kasalligiga qarshi kurashda bezgak tarqatuvchi chivinlari ko‘payadigan irrigatsiya inshootlarini tartibga solish va sholi maydonlarini aholi yashash punktlaridan uzoqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Farg‘ona viloyati sholi maydonlari bo‘yicha Turkiston o‘lkasida birinchi o‘rinda turgan. Farg‘ona viloyat Yer-suv ishlari boshqarmasi o‘z faoliyatini sog‘liqni saqlash bo‘limlari bilan kelishgan holda olib borishi zarur edi. Ammo Farg‘ona viloyati revkomining bir qancha buyruqlariga qaramay, Farg‘ona viloyat Yer-suv ishlari boshqarmasi gidrotexnika ishlarini sog‘liqni saqlash bo‘limlari ishtirokisiz olib borgan. Qamishzorlarni neft yordamida yoqib yuborish ishlari, resurslarning yo‘qligi tufayli amalga oshirilmadi. Viloyatda nisbatan bezgak keng tarqalgan hududlar Andijon, Qo‘qon va Marg‘ilon uyezdi, Namangan uyezdining Pop va Ashabin hududlari edi [9,10].

1923-yil 13-sentyabrda Turkiston XKS barcha gidrotexnika ishlarini Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi bilan kelishgan holda amalga oshirish shartligi to‘g‘risida qaror chiqardi. Shunga qaramay, sug‘orish tarmoqlarini tozalash ishlari juda sekinlik bilan kechdi. Sovet hukumati bezgak bilan kurashga katta mablag‘larni ajratishni istamadi. Andijon va Qo‘qonda bezgak stansiyalari tashkil etish zarur bo‘lsa-da, bu stansiyalar smetasi 1922-1923 va 1923-1924-yillar davlat byudjetiga kiritilmadi [11].

Olingan natijalar tahlili. Bezgakning keng tarqalishi aholi salomatligiga jiddiy xavf bo‘lishi bilan birgalikda, iqtisodiy zarar ham keltirgan. Bezgakning avgust va sentyabr oylarida keng tarqalishi, qishloq xo‘jaligida o‘rim-yig‘im mavsumiga to‘g‘ri kelganligi sababli hosilni yig‘ib olishga imkon bermagan. Sovet hukumati bu omilni hisobga olib, ayniqsa, paxta

yetishtirishni saqlab qolish uchun bezgakka qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Bezgakka qarshi kurash olib borishning ikki muhim jihati mavjud. Birinchidan, bezgak chivinlari tarqalishini oldini olish maqsadida, sug'orish tarmoqlarini tozalash, botqoqliklarni quritish, sholi maydonlarini aholi yashash manzillaridan eng kamida ikki kilometr uzoqlikda tashkil etish kabi chora-tadbirlar olib borish zarur edi. Ikkinchidan, bemorlarni davolash, ularga xinin tarqatish, aholi orasida bezgakdan saqlanish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish kerak edi.

Muhokamalar. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatining olib borgan siyosati natijasida, o'lkada ocharchilik avj oldi, bu esa aholi salomatligiga jiddiy zarba berdi. Shuningdek, Rossiyaning markaziy qismlaridan Turkistonga aholi ko'chirilishi mintaqada avval kuzatilmagan kasallik – toshmali terlama va vabo tarqaldi. Sug'orish tarmoqlarining vayron bo'lishi tufayli bezgak epidemiyasi ham avj oldi.

Xulosa. Bezgak Turkiston o'lkasida eng keng tarqalgan kasallik edi. Ayniqsa, paxta ekishga ixtisoslashgan hududlarda bezgak ko'p tarqalib, paxtachilikka katta zarar yetkazgan. Sovet hokimiyati bezgak stansiyalari tashkil etish, chekka hududlarga bezgakka qarshi kurash otryadlari jo'natish, sanitar-maorif tadbirlari o'tkazish kabi choralar ko'rgan bo'lsa-da, mablag'larning ajratilmasligi, tibbiy xodimlarning kamligi va dori-darmon taqchilligi natijasida ko'rilgan choralar bezgakni kamaytirish uchun yetarli bo'lmadi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston ASSRda bezgak kasalligi XX asrning 1920-yillar boshlarida eng dolzarb ijtimoiy-sog'liqni saqlash muammolaridan biri bo'lib, u nafaqat aholining salomatligiga, balki o'lkaning iqtisodiy hayotiga ham jiddiy zarar yetkazdi. Tabiiy-iqlim sharoitlari, sug'orish tizimlarining kengayishi, sholi ekinlari va botqoqliklarning ko'pligi, shuningdek, urush va ocharchilik oqibatida sanitariya holatining keskin yomonlashuvi bezgakning keng tarqalishi uchun qulay muhit yaratdi. Natijada, ayrim hududlarda aholining katta qismi, ba'zi joylarda esa deyarli 100 foizi bezgak bilan kasallandi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sovet hokimiyati bezgakka qarshi kurashni asosan iqtisodiy zarurat, xususan paxtachilik va qishloq xo'jaligini tiklash ehtiyoji bilan bog'liq holda olib bordi. Biroq shifokorlar, dori-darmonlar (ayniqsa xinin), moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslarning keskin yetishmasligi sababli ko'rilgan chora-tadbirlar yetarli samara bermadi. Davlat organlari va xo'jalik idoralari o'rtasida hamkorlikning sustligi, gidrotexnik ishlarning sog'liqni saqlash talablari bilan uyg'unlashtirilmagani bezgak o'choqlarining saqlanib qolishiga olib keldi.

Umuman olganda, Turkiston ASSRda bezgakka qarshi kurash tajribasi sog'liqni saqlash siyosatining iqtisodiy manfaatlarga bo'ysundirilganini, epidemiyalarga qarshi tizimli va kompleks yondashuv yetishmaganini ko'rsatadi. Bu holat bezgakning uzoq yillar davomida ommaviy kasallik sifatida saqlanib qolishiga sabab bo'ldi hamda sovet davrida Turkistonda sog'liqni saqlash tizimining dastlabki bosqichdagi imkoniyatlari va cheklovlarini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O'z MA, R.25-fond, 1-ro'yxat, 1821-yig'ma jild, 137-varaq orqasi.
2. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 308-yig'ma jild, 44-varaq orqasi.
3. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 317-yig'ma jild, 203-varaq.
4. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 378-yig'ma jild, 128-varaq orqasi.
5. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 399-yig'ma jild, 61-varaq va orqasi.
6. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 399-yig'ma jild, 221-varaq.
7. O'z MA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 77-yig'ma jild, 41-varaq.
8. O'z MA, R.25-fond, 1-ro'yxat, 979-yig'ma jild, 69-varaq.
9. O'z MA, R.17-fond, 1-ro'yxat, 1107-yig'ma jild, 1-varaq orqasi.
10. Каромов Ғ.Ҳ. Туркистон АССР, БХСР ва ХХСРда соғлиқни сақлаш соҳасининг йўлга қўйилиши. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Бухоро, 2021. – 146 б.
11. Дембо Г.И. Малярия и ирригация в Туркестане // Вестник ирригации. – Июл 1924 г.